

11-SINF TARBIYA. ChSB – Original variant

Sana: _____ **Sinf** _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Daxldorlik hissi insonlar o'rtasida qanday natijaga olib keladi? (B-2ball)

- A) Nizo va raqobat kuchayadi B) Insonlar bir-biridan uzoqlashadi
C) Insonlarni birlashtiradi D) Mustaqil qarorlar kamayadi

2. Qanday inson har bir yaxshi-yomon ishlardan o'ziga kerakli xulosalarni chiqara oladi? (B-2ball)

- A) Johil inson B) Oqil inson C) Boy inson D) Hunarli inson

3. Agar inson bir yilda hosil olishni ko'zlasa nima ish qilishi kerak? (B-2ball)

- A) daraxt ekishi B) sholi ekishi C) farzand tarbiyalashi D) qarzga pul berishi
kerak

4. Oila bag'rida shakllanadigan eng asosiy tuyg'ular nimalardan iborat? (B-2ball)

- A) Faqat ijtimoiy va iqtisodiy tushunchalar
B) Insonning qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ular va ilk hayotiy tushunchalar
C) Faqat negativ tuyg'ular va qayg'ular
D) Faqat jismoniy tarbiya

5. Bahor faslida butun mahallani tozalash maqsadida hashar kuni belgilandi. Siz qanday ishni oldindan tashkil qilasiz? (Q-2,8ball)

- A) Faqat o'z hovlingizni tozalashni maqsad qilasiz.
B) Mahalla raisi bilan reja tuzasiz, vazifalarni teng taqsimlaysiz.
C) Do'stlaringizni chaqirmasdan, yakka o'zingiz harakat qilishni rejalashtirasiz.
D) O'sha kuni boshqa muhim ishlaringiz bajarishni rejalashtirasiz.

6. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm g'oyalari tuzog'iga tushib qolish jamiyatni qanday holatga olib kelishini aniqlang. (Q-2,8 ball)

- 1) jamiyatda ishonchning yo'qolishiga;
2) qonuniy va siyosiy tartibning buzilishi;
3) millatlar o'rtasida tinchlik urug'ini tarqalishiga;
4) davlatlarning ma'naviy rivojlanishiga;
5) iqtisodiy va madaniy rivojlanishning sekinlashishi.

- A) 1, 2, 5 B) 1, 3, 4 D) 1, 4, 5 C) 2, 3, 4

7. Sohiba yaqinda bo'lib o'tgan fan olimpiadasida viloyatda 1-o'rinni egalladi. Bundan xursand bo'lgan Sohibani barcha yaqinlari tabriklashdi. Ammo, uni ba'zi o'quvchilar Respublika bosqichida yuqori o'rinni egallay olmaydi deb ishonchsizlik bildirishdi. Sohiba bu vaziyatda o'zini qanday tutishi kerak? (Q-2,8ball)

- A) salbiy gaplarni aytganlarni tanqid qilish va ular bilan muloqotni to'xtatish.
B) Barcha odamlarning fikrini hurmat qilgan holda, o'z orzulariga erishish uchun tinimsiz harakat qilish.

- C) Do'stlariga xafa bo'lganligini, o'z muvaffaqiyatini ularga ko'rsatmaslik.
D) Salbiy gaplarni aytganlarni o'zgartirishga majburlash va ularni jazolash.

8. Missionerlik faoliyati bo'yicha berilgan ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'riga ajrating. (Q-2,8ball)

- 1) missionerlar muayyan hududda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim mintaqalarni belgilab oladilar;
2) hozirgi kunda xristian missionerlarining diqqat-e'tibori "10/40 oyna" deb atalgan hududga qaratilgan;
3) ularning ta'sir ko'rsatish usullari aniqlanmagan.

- A) 1-to'g'ri, 2- to'g'ri, 3-to'g'ri B) 1-to'g'ri, 2- to'g'ri, 3-noto'g'ri
C) 1-noto'g'ri, 2- to'g'ri, 3- noto'g'ri D) 1-to'g'ri, 2-noto'g'ri, 3- to'g'ri

9. Dilnoza va uning dugonasi ijtimoiy tarmoqlardan har xil videolar va kinolarni tomosha qilishni odat qilgan. Shu sababli, Dilnozaning xulq-atvori va kundalik odatlari o'zgara boshladi, uy vazifalarini bajarish va oilaviy tartibga rioya qilishda muammolar yuzaga keldi. Ota-onasi bu holatdan xavotirda. Dilnozaning bu holatiga qanday baho berish mumkin? (Q-2,8ball)

- A) Axborot iste'moli madaniyati buzilishi
B) Mehnatsevarlik va intizomning yo'qligi
C) Ijtimoiy ko'nikmalarning yuqoriligi
D) Texnologiyalarga bo'lgan qiziqishning ortishi

10. Aziz bloggerlikka qiziqardi va muntazam ravishda mashhur bloggerlarning ijtimoiy tarmoqlarga joylagan postlari va videolarini kuzatib borardi. Bir kuni unga notanish foydalanuvchi noxush kontentli rasm va videolar yubordi. Aziz darhol bu xabarlarini o'chirib tashladi. Ushbu vaziyatda Aziz nimaga amal qilganligini aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) Mashhurlarga qiziqishi ustun bo'lib, o'z qarorini e'tiborsiz qoldirdi
B) Ijtimoiy tarmoqdagi do'stlari sonini ko'paytirishga intildi, shu sababli kontentni rad etdi
C) Axborot iste'moli madaniyatiga amal qilib, zararli va noxush kontentdan himoyalandi
D) Faqat notanish foydalanuvchilar bilan muloqot qilish orqali yangi tajriba o'ttirishga harakat qildi

11. Barcha dinlar qanday harakatlarni targ'ib qilmaydi? (Q-2,8ball)

- A) nohaq qon to'kish, urush olovini alanga oldirish va buzg'unchilikni
B) ezgulik va tinchlikni
C) insonparvarlik va bag'rikenglikni
D) ezgu ishlar uchun hamkorlik qilish

12. Yaxshi inson o'zidan, yomon inson o'zidan, xatkor inson o'zidan, mukammal inson o'zidan qoldiradi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring. (Q-2,8ball)

- A) baxt, tajriba, dars, iz B) samarali mehnat, yomon nom, dars, nom
C) farzand, yovuzlik, iz, boylik D) pul, dog', tajriba, kitob

13. Umida bu yil 18 yoshga to'ldi va saylovda ishtirok etib o'zi munosib deb bilgan shaxsga ovoz berdi. U yaqinda Xiva shahriga sayohatga borib, Ichan

qal'a muzeyidagi har bir narsaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ldi. Ushbu vaziyatda Umidaning huquqi va burchini aniqlang. (Q-2,8ball)

- A) Sayohatga borishi burchi, saylovda ovoz berishi huquqi
- B) 18 yoshga to'lishi huquqi, ovoz berishi majburiyati
- C) Muzeyga borish huquqi, saylovda qatnashish majburiyati
- D) Saylovda ovoz berishi huquqi, tarixiy obidalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish burchi

14. Sinfga boshqa davlatdan kelgan yangi o'quvchi qo'shildi. Bobur unga yordam berishga harakat qildi, ammo uning sinfdoshi Sardor: "Ular bizdan boshqacha, u bilan do'stlashmagan yaxshi", — deb salbiy munosabat bildirdi. Sardorning bu xatti-harakati qanday holatni aks ettiradi? (Q-2,8ball)

- A) Madaniy xilma-xillikka hurmat ko'rsatish
- B) Ijtimoiy moslashuvga yordam berish
- C) Ksenofobiya — chet elliklarga nisbatan salbiy munosabat
- D) Do'stlik va hamkorlikni kuchaytirish

15. Mulohazani davom ettiring: "Insonning o'ziga bahosini oyna bilan qiyoslash mumkin. Agar oyna qiyshiq bo'lsa, inson qiyofasi ham qiyshiq ko'rinadi. Xuddi shu kabi kishining o'ziga bahosi noto'g'ri, noxolis bo'lsa,". (M – 4 ball)

- A) u qiyshiq oyna kabi noto'g'ri aksni ko'rsatadi
- B) u oyna kabi shaffof bo'ladi
- C) oynani bunga aloqasi yo'q
- D) kishining o'ziga bahosi oshadi